



AHOLI SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA ARALASH SAYLOV TIZIMINING TUTGAN O'RNI VA ROLI.

Abdiquodirova Gavxaroy G'ulomjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Huquqni sohalararo o'rganish fakulteti

Davlat va jamiyat boshqaruvi yo'nalishi talabasi.

Email: abduquodirova.g@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20710963>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 5-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 16-iyun 2026 yil

KEY WORDS

Siyosiy faollik, saylov huquqi, saylov tizimi, majoritar tizim, proporsional tizim, aralash saylov tizimi, Oliy Majlis, siyosiy partiyalar, sog'lom raqobat, parlamentarizm, elektron ovoz berish, jamoatchilik nazorati.

ABSTRACT

Ushbu maqolada demokratik islohotlarning muhim bosqichi hisoblangan fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish hamda davlat hokimiyatini shakllantirishda saylov tizimlarining o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda majoritar, proporsional va aralash saylov tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy o'rganilib, O'zbekistonda parlament saylovlarining aralash tizimga (majoritar va proporsional) o'tkazilishining siyosiy va huquqiy zarurlari asoslab berilgan. Eski majoritar tizimda yuzaga kelgan muammolar, partiyaviy raqobatning sustligi va deputatlarning mahalliy manfaatlar bilan cheklanib qolishi kabi salbiy holatlarning yangi tizim orqali bartaraf etilishi ilmiy jihatdan ochib berilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba (Shvetsiya, Shvetsariya, Buyuk Britaniya) misolida yoshlar o'rtasidagi siyosiy passivlik muammosi va uning sabablari o'rganilgan. Maqola yakunida aholining saylov tizimi haqidagi bilimlarini oshirish, masofaviy elektron ovoz berish (e-voting) tizimini joriy etish hamda siyosiy faol fuqarolarni rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish bo'yicha muallifning amaliy taklif va tavsiyalari ilgari surilgan.

Kirish. Siyosiy faollik – bu fuqarolarning siyosiy jarayonlarda bevosita yoki bilvosita faol ravishda ishtirok etishi, misol uchun, Prezident saylovi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovida ovoz berish, siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi muhokamasida (regulation.gov.uz) doimiy qatnashish hamda taklif va mulohazalarini berish. Jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning roli hamda fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish demokratik islohotlarning muhim bosqichi sanaladi. Shu bois ularning davlat hokimiyatini shakllantirish jarayonida muayyan g'oya va maqsadlarni ko'zlab, ishtirok etishlarini ta'minlashda aralash saylov tizimini joriy etish taklifi anchadan buyon ilgari surib kelinmoqda edi[1]. Umuman o'zi **saylov** nimaligiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, **saylov** – bu vakolatli shaxslar tomonidan ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladigan davlat organini shakllantirish yoki mansabdor shaxsga vakolat berishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibidir. Saylov zamonaviy demokratiyaning eng muhim instituti, xalq irodasining ifodalanishi,

siyosiy jarayonda bevosita ishtirok etishining asosiy shakllaridan biri[2]. **“Saylov”** deganda yana dunyodagi barcha demokratik davlatlarda aholining jamoat tashkilotlari va birlashmalariga birlashib (masalan, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari), davlat hokimiyatini tashkil etishda ishtirok etishini tushunishimiz mumkin. Barcha demokratik davlatlarda saylov jarayoni mavjud ekan, demak, bu ushbu davlat fuqarolarining saylov huquqi ham Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilganligini anglatadi. **Saylov huquqi** – saylovlarni o'tkazish tartibini tartibga soluvchi huquqiy tamoyillar va normalar, shuningdek, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari saylovlari paytida yuzaga keladigan eng muhim ijtimoiy munosabatlar tizimidir[2]. Saylov huquqi bizning konstitutsiyaviy-siyosiy huquqlarimizdan biri bo'lib, u bizga bizning nomimizdan siyosat olib boradigan vakillarimizni saylash imkoniyatini beradi. Saylov jarayonida jamiyatning orzu-umidlari, xohish-istaklari, shuningdek, xilma-xil fikrlar va ijtimoiy kayfiyatlar namoyon bo'lganligi sababli fuqarolarning o'z saylov huquqlarini erkin amalga oshirishlari ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokinging eng muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, Konstitutsiyamizning XXII bobi (128-129-moddalari) **“Saylov tizimi”** deb atalib, 128-moddada **“O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar”**, deb mustahkamlab qo'yilgan[3]. Demak, saylov huquqi deganda, birinchidan, mamlakatda saylovlarni tashkil etuvchi huquq normalari tushunilsa, ikkinchidan, fuqarolarning saylash va saylanishga bo'lgan huquqi tushuniladi[2].

Asosiy qism. Xalqaro tajribaga ko'ra, ochiq va shaffof saylov tizimining mavjud bo'lishi siyosiy partiyalarning boshqaruvdagi rolini ko'tarishda, fuqarolarning siyosiy faolligini oshirishda va davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro uzviylikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega[1]. Chunki saylov demokratik davlatning muhim belgisi. **Saylov tizimi** nimaligiga to'xtaladigan bo'lsak, **saylov tizimi** – saylov o'tkazishga oid barcha qonun hujjatlari, saylov tizimi tamoyillari, fuqarolarning saylov huquqlarini o'z ichiga olgan saylov o'tkazish tartiblari va ularni belgilovchi qoidalar yig'indisidir[2]. **Saylov tizimi quyidagi turlarga bo'linadi:**

Majoritar – hozirgi davrda juda keng tarqalgan saylov tizimlaridan biri bo'lib, ushbu tizimda, saylov natijalarini aniqlashda ko'pchilik ovoz prinsiplariga asoslanadi. Majoritar saylov tizimi asosida dunyoning 79 ta mamlakatida (Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya, Kanada, Hindiston va boshqalar) saylovlar o'tkaziladi.

Proporsional – deputatlik mandatlari siyosiy partiyalar yoki ro'yxatlar asosida berilgan ovozlarga proporsional mutanosib ravishda partiyaviy ro'yxatlar o'rtasida taqsimlanadi, saylovchilar yakka nomzodlarga emas, partiyalarga ovoz beradi. Proporsional saylov tizimi esa 75 ta davlatda (Avstriya, Italiya, Braziliya, Niderlandiya, Shvetsiya, Finlandiya, Turkiya, Isroil va boshqalar) qo'llanib kelinmoqda.

Aralash (mixed electoral system) – mamlakatlarda o'tkaziladigan saylovlarda majoritar tizim ham, proporsional tizim ham qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovlarda bo'lgani kabi Janubiy Koreya, Rossiya, Germaniya, Gruziya, Yaponiya, Meksika, Avstraliya kabi davlatlarda parlamentar aralash saylov tizimi (ayrim mandatlar mojaritar va ayrimlari proporsional saylov tizimi bo'yicha) asosida shakllanadi[2].

Mamlakatda qaysi saylov tizimidan foydalanishni konstitutsiya yoki qonunlarda belgilab qo'yiladi. **2023-yil 18-dekabrda** O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan imzolangan konstitutsiyaviy qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida Qonunchilik palatasi saylovini aralash (majoritar, proporsional) saylov tizimi asosida o'tkazish tartibi belgilandi. Natijada, saylov okruglari bir mandatli va yagona saylov okruglariga ajratildi. Qonunchilik palatasining 75 nafar deputati majoritar saylov tizimi asosida bir mandatli saylov okruglaridan, qolgan 75 nafari proporsional saylov tizimi asosida, ya'ni siyosiy partiyalarga

berilgan ovozlar bo'yicha yagona saylov okrugidan saylanishi belgilandi[4]. (**Saylov kodeksi, 67-modda**). Bungacha O'zbekistonda parlament saylovlari majoritar tizim bo'yicha o'tkazilib, unda o'z saylov okrugida ko'pchilik ovoz olgan nomzodlar saylangan deb hisoblanar edi.

Aralash saylov tizimiga o'tilishi natijasida siyosiy partiyalar o'rtasidagi sog'lom raqobat kuchayadi. Amalda bo'lgan ushbu majoritar saylov tizimi sababli siyosiy partiyalar faoliyatini samarali rivojlantirish, ularni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining qudratli boshqaruv vositasiga aylantirishga to'sqinlik qiluvchi bir qancha muammolar kelib chiqdi. Misol uchun, ushbu tizimning **o'ziga xos jihati shunda ediki, g'olib barcha o'rinlarni qo'lga kiritardi** va oqibatda fuqarolarning xohish-irodalarining to'laqonli ifodalanishiga to'sqinlik qilardi. Shuningdek, ko'ppartiyaviylik tizimining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatardi. Shu bois, siyosiy partiyalar ko'p hollarda qonun ijodkorligida yetarli tajribaga ega bo'lmagan, biroq ma'lum hududda obro'-e'tiborga ega bo'lgan mansabdorlarga tayanishiga to'g'ri kelardi. Bu esa parlamentda deputatlarning faolligining pasayishiga hamda ularning faoliyati asosan mintaqaviy-mahalliy manfaatlarni ifodalash bilan chegaralanishiga olib kelgan. Demak, yangi aralash saylov tizimi ushbu muammolarni qisman bo'lsa-da, yaxshilashga xizmat qiladi, siyosiy partiyalar mintaqaviy bo'limlarining shakllanishi va rivojlanishini rag'batlantiradi, raqobat muhitini yanada kuchaytiradi hamda **saylovchilarning siyosiy partiyaga nisbatan ishonchi oshadi**. Natijada **aholi siyosiy jarayonlarda yanada faolroq ishtirok etishadi, ovoz berish, deputatlarni saylash orqali fuqarolar o'z fikrini erkin ifoda etadi va o'z ovozi bilan muhim siyosiy qarorlarning shakllanishga ta'sir ko'rsatadi**. Shuningdek, qonunchilik faoliyatining sifati ham oshadi, ya'ni fuqarolarning deputatlarga murojaatlari soni ko'payadi, deputatlar esa qonunlarni yanada takomillashtirish, qo'shimchalar kiritish va ijrosini nazorat qilishda faol bo'lishadi. Bu esa ijro hokimiyati vakillariga nisbatan mas'uliyat va talabchanlikni kuchaytiradi. Natijada xalqning siyosiy jarayonlarga qiziqishi ortadi, jamoatchilik nazorati yanada kuchayadi. Partiyalar, ularning saylovoldi dasturi va siyosiy faoliyati orqali aholining turli qatlam va guruhlarining jamoatchilik fikri obyektiv tarzda hisobga olinishi boshlanadi. Boshqa tomondan, professional parlament shakllanishiga imkon beradi. Uning tarkibi esa jamiyatda siyosiy kuchlarning nisbatini aks ettiradi. Aralash saylov tizimi siyosiy partiyalarni charxlaydi, chunki deputatlarning bir qismi proporsional asosda saylanadi. **Zamonaviy demokratik jamiyatda siyosiy partiyalar aholi bilan axloqiy ishlar olib borish uchun emas, balki saylovlarda ishtirok etish uchun tuziladi. Siyosiy partiyalar faol va tashabbuskor bo'lar ekan, aholi ham o'z-o'zidan siyosiy faol bo'ladi, siyosiy ongi va madaniyati yuksaladi**. Shuningdek, sog'lom raqobat mavjud bo'lgan davlatda ham iqtisodiy-ijtimoiy, ham siyosiy yuksalish kuzatiladi.

Yangi tizim Oliy Majlis palatalarining davlat hokimiyati tizimidagi rolini yanada mustahkamlashga, ularning ichki va tashqi siyosatga oid muhim vazifalarni hal etishdagi vakolatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Qonun ijodkorligi va parlament nazoratini amalga oshirishning amaldagi mexanizmlarini samaradorlik nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish, mazkur **jarayonlarda fuqarolarning ishtirokini ta'minlash orqali jamoatchilikning davlat boshqaruvidagi tashabbuskorligini oshiradi. Deputatlarni o'z saylovchilari bilan bog'lash, ular bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot olib borish, saylovchilarni qiynayotgan muammolarni muhokama qilish va hal etish jarayonini faollashtirishga ko'maklashadi**. Qonunchilik palatasi boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish, parlament saylovlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida yanada takomillashtirish imkonini beradi[1]. Ya'ni oddiy xalq bemalol o'zlarining muammolari haqida qonunchilik palatasi deputatlariga ayta olishadi va yechimning ham tez va adolatli tarzda hal etilishi borasidagi shubhalari kamayadi.

Ammo shunday bo'lsa-da, hozirgi kunda siyosiy faollikning bir ko'rinishi bo'lmish saylovlarda ishtirok etish ko'rsatkichi tushib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida saylovlarga

bormaslik holatlari ko'p uchramoqda. Bu holat nafaqat O'zbekistonda, balki Yevropa mamlakatlaridagi saylovlarda ham yaqqol seziladi, ammo Shvetsiya singari davlatlarda mahalliy darajadagi saylovlarda fuqarolarning faolligi saqlanib qolmoqda. **“Impact of electoral systems on the political process”** maqolasida saylovlarga nisbatan fuqarolarning bunday befarqligiga sabab sifatida ko'plab davlatlarda ovoz berish tizimining moslashuvchan emasligi va siyosiy partiyalarga bo'lgan ishonchsizlik ko'rsatilgan, ya'ni fuqarolar saylov uchastkalariga shaxsan borishlariga to'g'ri keladi yoki kichik partiya tarafdorlari o'z ovozi “bekorga ketadi” deb hisoblab, saylovda qatnashmaydi. Bu kabi muammoning oldini olish uchun ba'zi mamlakatlarda, misol uchun **Shvetsariyada, 70 %** saylovchilar ovoz berish jarayonida saylov uchastkalariga bormasdan, **pochta orqali ovoz berish** tizimidan foydalanadi. Biroq bu kabi saylovni osonlashtirish usullari barcha mamlakatlarda samarali va qulay ishlab ketishiga kafolat yo'q. Misol uchun, **Buyuk Britaniyada** pochta orqali ovoz berish uchun guvohlarning yozma tasdiqlari talab etiladi, shuningdek, supermarketda, dam olish kunlari yoki tunbo'yi ovoz berish kabi imkoniyatlarni yaratish ham har doim faol ishtirokni ta'minlamaydi. Masalan, **1990-yil bahorida Buyuk Britaniyada** saylovlar o'tkazilganida saylovchilarga turli qulay tizimlar yaratilgan bo'lsa-da, ularning birortasi **50 %dan oshmagan**[5].

Shunga qaramay, O'zbekiston sharoitida aralash saylov tizimining joriy etilishi fuqarolarning saylov jarayonlarida qatnashib, ovoz berishdagi ishonchni oshirishda, davlat va jamiyat o'rtasidagi demokratik aloqalarni mustahkamlashda, umuman olganda fuqarolarning siyosiy faolligini oshirishda muhim qadam deb hisoblash mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi muammolarni tahlil qilib, bir qancha takliflar keltirishimiz mumkin:

Birinchidan, “Aralash saylov tizimi” tushunchasi hamda ushbu tizim qanday ishlashini hamma ham tushunmasligi mumkin, shuning uchun ommaviy axborot vositalarida, xususan, matbuot, radio, televideniye, internet hamda mahalliy yig'ilishlarda sodda va barchaga tushunarli uslubda tushuntirilishi kerak, **hattoki grafikalar, qisqa videolar orqali tushuntirish ishlari olib borilishi mumkin.**

Ikkinchidan, yuqorida aytilganidek, saylov tizimining qattiqligi va noqulayligi sababli, barcha fuqarolar qatnasha olmasligi mumkin. Misol uchun, aynan saylov jarayoni bo'layotganda fuqaro boshqa muhim masala bilan shug'ullanayotgan yoki xizmat safari bilan boshqa hududga ketgan bo'lishi mumkin va natijada o'zi biriktirilgan saylov uchastkasiga borishga imkoni bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun **elektron tarzda ovoz berish imkonini yaratishni** taklif qilaman. Chunki zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda va XXI asr raqamli texnologiyalar asri hisoblanadi. Bundan tashqari, elektron ovoz berish usuli barchaga qulay bo'ladi, uyda o'tirgan holatda, siyosiy partiyalarning dasturlarini tahlil qilib, ularning loyihalarini o'rganib, keyin o'zlari uchun munosib deb topgan siyosiy partiya deputatlariga ovoz berish imkoni yaratiladi. Bu orqali ularning **siyosiy bilimlari ham anchagina yaxshilanadi.**

Uchinchidan, baholash tizimini joriy qilish, ya'ni fuqarolar siyosiy jarayonlarda faol qatnashishsa, xususan, saylovlarda doimiy ravishda ovoz berishsa, muhokamalarda doimiy o'z fikrlarini bayon etishsa, ularga ball yoziladi, eng yuqori ball to'plaganlar rag'batlantirib boriladi hamda ularga imtiyozlar beriladi, masalan, jamoat transportlaridan bepul harakatlanish yoki siyosiy faol fuqarolarning yagona reyestri tuzilib, yuqori lavozimlarda ishlash imkoni berishilishi mumkin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, yuqoridagi tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, saylov tizimi xoh majoritar, xoh proporsional, xoh aralash bo'lsin, aholining siyosiy faolligiga ta'sir ko'rsatadi. Saylov tizimini tanlash faqatgina texnik masala emas, balki fuqarolarning siyosiy jarayonlarga ishonchini oshirish va ularning siyosiy faolligini oshirishning eng samarali vositalaridan biridir.

Ammo amaldagi tizimlarning har biri o'z afzallik va kamchiliklari bo'lgani bois, har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitini ham inobatga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uza.uz/oz/posts/aralash-saylov-tizimi-fuqarolarning-siyosiy-faolligini-oshiradi_644438
2. Konstitutsiyaviy huquq [Matn]: darslik/ Muallif jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. 800 bet.
3. <https://lex.uz/docs/-6445145>
4. <https://lex.uz/en/docs/-4386848>
5. <https://assembly.coe.int/nw/xml/XRef/X2H-Xref-ViewHTML.asp?FileID=9090&lang=EN>

